

## **Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchilari uchun**

### **QO‘LLANMA**

#### **Dars rejasি:**

**Mavzu:** “Korrupsiya va poraxo‘rlikka qarshi kurash choralari”

#### **Fan: Davlat va huquq asoslari**

**Sinf:** 11-sinf

**Dars davomiyligи:** 45 daqiqa

---

#### **Dars maqsadi:**

1. Davlatning korrupsiyaga qarshi kurashish choralari va mexanizmlarini tushuntirish.
  2. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishini va ularning amaliy faoliyatini ko‘rib chiqish.
  3. Amaliy keyslar va misollar orqali korrupsiyaga qarshi kurashish usullarini o‘rgatish.
  4. O‘quvchilarda korrupsiyaning salbiy oqibatlariga oid faollikni va huquqiy xulosa chiqarish qobiliyatlarini shakllantirish.
- 

#### **Kutilayotgan natijalar:**

1. O‘quvchilar davlatning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ularning vazifalarini tushunishadi.
  2. Korrupsiyaga qarshi davlatning amaliy chora-tadbirlari haqida ma’lumotga ega bo‘lishadi.
  3. O‘quvchilar korrupsiyaga qarshi kurashishdagi mas’uliyatni anglab, kelgusida korrupsiyaga qarshi muammolarga e’tibor qaratadilar.
  4. Amaliy keyslar orqali korrupsiyaga qarshi kurashishga oid aniq va samarali qarorlar qabul qilishni o‘rganadilar.
- 

#### **Metodlar:**

- **Keys-metod:** Korrupsiyaga qarshi kurashishdagi vaziyatlar va amaliyotlar.
  - **Blits so‘rov:** Qisqa va tezkor savol-javoblar orqali bilimlarni tekshirish.
  - **Suhbat:** Korrupsiyaning salbiy oqibatlari, davlatning chora-tadbirlari va ularning samarasi haqida faol suhbat olib borish.
  - **Hikoyalar:** Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amaliy hikoyalar va misollar orqali darsni yanada qiziqarli olib borish.
  - **Bilimlarni mustahkamlash:** Ko‘rib chiqilgan mavzuga oid savollar, xulosalar va tavsiyalar.
- 

### Foydalananadigan materiallar:

- **Qonun hujjatlari:** Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining qonunlari.
  - **Amaliyot xulosalari:** Davlatdagi korrupsiyaga qarshi kurashish jarayoniga oid keyslar va voqealar.
  - **Taqdimot:** Davlatning korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar haqida slaydlar.
- 

### Dars qismlari:

#### 1. Kirish (5 daqiqa)

- O‘quvchilarga savol: “Korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat qanday choralar ko‘radi?”
- O‘quvchilarning fikrlarini to‘plash va darsning maqsadiga yo‘nalish berish.
- Davlatning korrupsiyaga qarshi kurashishda chora-tadbirlari haqida qisqacha ma’lumot berish.

#### 2. Korrupsiyaga qarshi kurashishdagi davlat chora-tadbirlari (10 daqiqa)

- **Korrupsiyaga qarshi kurashish doirasida davlat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar:**
  - Qonunchilikni takomillashtirilish.
  - Korrupsiyani aniqlash va unga qarshi choralar.
  - Korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlari va ularning samarali natijalari.

- **Savol:** "Korrupsiyaga qarshi qanday usullar samarali bo‘lishi mumkin?"

### **3. Qaysi huquqni muhofaza qiluvchi organlar korrupsiyaga qarshi kurashda ishtirok etadi? (8 daqiqa)**

- **Korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etuvchi organlar:**
  - Prokuratura, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar organlari, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi.
  - Davlat organlarining o‘zaro hamkorligi.

### **4. Tashkilotlar darajasida korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlarning amaliy misollari (10 daqiqa)**

#### **• Korrupsiyaga qarshi kurashishda tashkilotlar va ularning faoliyati quyidagilardan iborat:**

- Tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati.
- Tashkilotlarning samarali monitoring va audit ishi.
- **Amaliyot:** Barcha moliyaviy jarayonlarning shaffofligini ta’minlaydigan avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy qilish.
  - "To‘g‘ridan-to‘g‘ri xabar berish" platformasini yaratish, bu orqali xodimlar anonim tarzda korrupsiya haqida xabar berishlari mumkin.
  - **Keys:** "Asia FSH" xususiy maktabining ta’lim jarayonida qator korrupsiya holatlari kuzatildi. Jumladan:
    - O‘qituvchilarini maktabga ishga qabul qilishda pora olish.
    - Imtihon natijalarini soxtalashtirish.

Maktabga qabul jarayonlari va imtihon natijalarini shaffof qilish uchun elektron tizim ishlab chiqildi:

- Hujjatlarni elektron tarzda topshirish.
- Imtihon natijalarini avtomatlashtirilgan holda baholash.
- Har bir bosqichdagi ma’lumotlar onlaynda ochiq bo‘lishi.

Natijalar(1 yil ichida):

- Maktabga qabul jarayonida shikoyatlar 50%ga kamaydi.
- Fuqarolardan tushadigan mablag‘larni norasmiy yo‘naltirish holatlari bartaraf etildi.
- Imtihon natijalari shaffof va odilona baholana boshlandi.

Bu holat maktab tizimida shaffoflik va korrupsiyaga qarshi samarali choralarini joriy qilish mumkinligini ko‘rsatadi.

## **5. Blits so‘rov (5 daqiqa)**

- **Savollar:**
  - Qaysi organlar korrupsiyaga qarshi kurashishni olib boradi?
  - Korrupsiyaga qarshi kurashishda samarali usullar qanday?
  - Davlatning korrupsiyaga qarshi faoliyatini qanday baholash mumkin?

## **6. Yakuniy xulosa va baholash (5 daqiqa)**

- Dars bo‘yicha o‘quvchilarning fikrlarini jamlash.
  - **Suhbat:** Davlatning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi chora-tadbirlarining ahamiyati haqida xulosa qilish.
-